



SAMARQAND VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

SAMARQAND VILOYATINING CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

*2024-yil yanvar-dekabr
oylari uchun dastlabki
ma'lumot*



*Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Tel. 66-235-65-80*

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'atlari, foizda



2025-yil 1-yanvar holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni **10 080** ta bo'lib, shundan, yirik korxonalar soni **39** ta, kichik korxonalar va mikrofirmalar **10 041** tani tashkil etmoqda.

Shuningdek, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan.

Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.




Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2024-yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **35 916,8** mlrd so'mni, 2023-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati **108,0** % ni tashkil etdi.

Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **4 187,1** mlrd so'mni, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **31 729,7** mlrd so'mni (o'sish sur'ati **117,6** %), shundan, uyushmagan savdo tovar aylanmasi **2 934,8** mlrd so'mni (o'sish sur'ati **107,3** %) tashkil etdi.

	Jami, mlrd so'm	2023-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, foizda
Samarqand viloyati	35 916,8	108,0
Samarqand sh.	11 783,6	108,7
Kattaqo'rg'on sh.	1 285,0	104,9
<i>tumanlar:</i>		
Oqdaryo	801,7	108,1
Bulung'ur	2 442,9	108,4
Jomboy	1 247,4	108,3
Ishtixon	1 332,7	108,4
Kattaqo'rg'on	1 332,4	106,6
Qo'shrabot	702,1	107,3
Narpay	1 713,7	108,2
Payariq	1 061,5	107,2
Pastdarg'om	1 192,8	107,0
Paxtachi	638,3	107,2
Samarqand	3 987,6	109,3
Nurobod	516,3	106,5
Urgut	3 530,6	107,8
Toyloq	1 018,2	106,3


2024-yilning yanvar-dekabr oylarida 2023-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan Samarqand shahrida (**108,7** %) va Samarqand (**109,3** %), Bulung'ur (**108,4** %), Ishtixon (**108,4** %), Jomboy (**108,3** %), Narpay (**108,2** %), Oqdaryo (**108,1** %), hamda Urgut (**107,8** %) tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

Chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati dinamikasi (yanvar-dekabr)




So'nggi 5 yillikda (2020-2024-yillar) chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2021-yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2020-yilning mos davriga nisbatan **114,2 %** ni tashkil qildi.

2023-2024-yil uchun chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'ati, oylar kesimida (foizda)



2024-yilning yanvar-dekabr oylarida o'sish sur'ati **108,0 %** ni tashkil qildi.

Ulushi, foizda



Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulush **Samarqand shahrida 34,1 %** bilan **11 783,6 mlrd so'mni** tashkil etdi.

Viloyatda chakana savdo tovar aylanmasining eng quyi ulushini esa, **Nurobod tumani 1,5 %** bilan **516,3 mlrd so'mni** tashkil etdi.

2023-yilning mos davriga nisbatan, chakana savdo tovarlar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.

Hajmi, mlrd so'm


Samarqand sh.	11 783,6
Samarqand	3 987,6
Urgut	3 530,6
Bulung'ur	2 442,9
Narpay	1 713,7
Kattaqo'rg'on	1 332,3
Ishtixon	1 332,7
Kattaqo'rg'on sh.	1 285,0
Jomboy	1 247,3
Pastdarg'om	1 192,8
Payariq	1 061,5
Toyloq	1 018,2
Oqdaryo	801,7
Qo'shrabot	702,1
Paxtachi	638,3
Nurobod	516,3




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda) (2024-yil yanvar-dekabr)

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 2024-yilning yanvar-dekabr oylarida statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **31 729,7** mlrd so'mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan **17,6** % ga oshdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **88,3** % ni tashkil etdi.


Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi **4 187,1** mlrd so'mni 2023-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan **66,6** % ni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **11,7** % ulushiga to'g'ri keldi.



Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)



CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda), (2024-yil yanvar-dekabr)




Yirik korxonalar




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Kattaqo'rg'on shahri (99,9 %), Narpay (99,5 %), Ishtixon (99,4 %), Jomboy (99,3 %), Oqdaryo (99,1 %) va Payariq (99,1 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 11,7 % ni tashkil etib, eng katta ulush Samarqand shahri (17,9 %) va Samarqand (27,4 %), Bulung'ur (16,2 %), Kattaqo'rg'on (5,3 %), Pastdarg'om (4,1 %) tumanlarida kuzatildi.

11,7 %



88,3 %



Yirik korxonalar



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik



Hududlar kesimida ma'lumot, ming so'mda
(2024-yil yanvar-dekabr)

Samarqand viloyati 8 445,0

Samarqand sh. 19 955,3

Kattaqo'rg'on sh. 13 469,6

Oqdaryo 4 575,8

Bulung'ur 11 951,8

Jomboy 6 503,4

Ishtixon 4 775,0

Kattaqo'rg'on 4 489,0

Qo'shrabot 4 906,6

Narpay 7 466,9

Payariq 3 837,7

Pastdarg'om 3 076,6

Paxtachi 4 161,2

Samarqand 14 463,4


Nurobod 3 144,3

Urgut 6 239,0

Toyloq 4 551,4

2024-yilning yanvar-dekabr oylari holatiga ko'ra o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **8 445,0** ming so'mni (2023-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan **105,7 %**) tashkil etdi.


Ushbu ko'rsatgichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Samarqand shahri (**19 955,3** ming so'm), Samarqand tumani (**14 463,4** ming so'm), Kattaqo'rg'on shahri (**13 469,6** ming so'm) va Bulung'ur (**11 951,8** ming so'm) tumani hissasiga to'g'ri keldi.



Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunda dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati (2024-yil yanvar-dekabr), foizda



Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shoxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

	Jami, mlrd so'm	2023-yil yanvar- dekabr oylariga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd so'm	2023-yil yanvar- dekabr oylariga nisbatan, foizda	Chorva bozorlari, mlrd so'm	2023-yil yanvar- dekabr oylariga nisbatan, foizda
Samarqand viloyati	2 934,8	107,3	1 153,5	103,9	1 781,3	109,6
Samarqand sh.	249,4	134,9	190,8	119,6	58,6	2,3 m.
Kattaqo'rg'on sh.	289,9	93,5	109,5	86,6	180,4	98,2
<i>tumanlar:</i>						
Oqdaryo	164,7	103,0	10,7	75,2	154,0	105,8
Bulung'ur	254,8	112,4	92,9	155,1	161,9	97,1
Jomboy	212,0	104,2	109,9	66,7	102,1	2,6 m.
Ishtixon	229,6	102,2	132,2	119,4	97,4	85,5
Kattaqo'rg'on	217,9	112,5	108,4	167,7	109,5	84,9
Qo'shrabot	132,9	104,2	25,8	95,4	107,1	106,6
Narpay	120,6	109,8	63,6	122,0	57,0	98,7
Payariq	233,5	115,0	66,0	90,1	167,5	129,0
Pastdarg'om	93,5	88,8	10,7	104,3	82,8	87,1
Paxtachi	140,4	103,9	52,2	120,0	88,2	96,3
Samarqand	126,6	131,1	15,0	170,2	111,6	127,2
Nurobod	132,5	113,7	19,3	58,7	113,2	135,3
Urgut	164,4	104,4	85,0	87,7	79,4	131,2
Toyloq	172,1	95,2	61,5	94,5	110,6	95,5


– xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka taribdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

**Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi
o'sish sur'atlari**
(2024-yil yanvar-dekabr)



**Hududlar kesimida uyushmagan
savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd so'm**
(2024-yil yanvar-dekabr)



Viloyat bo'yicha 2024-yilning yanvar-dekabr oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi **2 934,8** mlrd so'mni, 2023-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan **107,3** % ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **1 153,5** mlrd so'mni (**103,9** %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **1 781,3** mlrd so'mni (**109,6** %) tashkil etdi.

2024-yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **1 153,5** mlrd so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**470,7** mlrd so'm) to'g'ri keldi.

Uyushmagan savdo aylanmasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi hajmi va ulushi
(2024-yil yanvar-dekabr)

<p>Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari</p> <p>470,7 mlrd so'm</p>  <p>40,8 %</p>	<p>Non va non mahsulotlari</p> <p>96,8 mlrd so'm</p>  <p>8,4 %</p>	<p>Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar)</p> <p>144,9 mlrd so'm</p>  <p>12,6 %</p>
<p>Tovuq go'shti</p> <p>85,2 mlrd so'm</p>  <p>7,4 %</p>	<p>Quritilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari (yong'oq, bodom, pista va boshqalar)</p> <p>125,3 mlrd so'm</p>  <p>10,9 %</p>	<p>Tuxum</p> <p>50,8 mlrd so'm</p>  <p>4,4 %</p>
<p>Ziravorlar</p> <p>50,8 mlrd so'm</p>  <p>4,4 %</p>	<p>Sut va sut mahsulotlari</p> <p>42,6 mlrd so'm</p>  <p>3,7 %</p>	<p>Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak</p> <p>28,8 mlrd so'm</p>  <p>2,5 %</p>
<p>Tuzlamalar</p> <p>38,7 mlrd so'm</p>  <p>3,3 %</p>	<p>Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari</p> <p>18,9 mlrd so'm</p>  <p>1,6 %</p>	

2024-yilning yanvar-dekabr oylarida, viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **1 781,3** mlrd so'mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi **1 428,2** mlrd so'm, qo'y va echkilar **267,7** mlrd so'mni, otlar **75,3** mlrd so'mni, parrandalar **10,1** mlrd so'mni tashkil qildi.

Uyushmagan savdo aylanmasida chorva mollari (parrandalar) savdosi hajmi va ulushi

<p>2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar</p> <p>795,6 mlrd so'm</p>  <p>44,7 %</p>	<p>1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar</p> <p>407,2 mlrd so'm</p>  <p>22,9 %</p>	<p>1 yoshgacaha bo'lgan yosh mollar</p> <p>225,4 mlrd so'm</p>  <p>12,6 %</p>
<p>Qo'ylar</p> <p>210,4 mlrd so'm</p>  <p>11,8 %</p>	<p>Otlar</p> <p>75,3 mlrd so'm</p>  <p>4,2 %</p>	<p>Echkilar</p> <p>57,3 mlrd so'm</p>  <p>3,2 %</p>
<p>Kurka, o'rdak, g'oz</p> <p>3,5 mlrd so'm</p>  <p>0,2 %</p>	<p>Tovuqlar</p> <p>6,4 mlrd so'm</p>  <p>0,4 %</p>	<p>Quyionlar</p> <p>0,1 mlrd so'm</p>  <p>0,006 %</p>
<p>Qushlar</p> <p>0,1 mlrd so'm</p>  <p>0,006 %</p>		

2025-yil 1-yanvar holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni **2 579** tani tashkil etib, shundan, yirik korxonalar soni **9** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **2 570** tani tashkil qildi.

	Jami mlrd soʻm	2023-yil yanvar- dekabr oylariga nisbatan, foizda
Samarqand viloyati	19 753,0	110,9
Samarqand sh.	1 095,4	111,6
Kattaqoʻrgʻon sh.	33,5	113,4
<i>tumanlar:</i>		
Oqdaryo	10,3	115,9
Bulungʻur	33,5	111,9
Jomboy	34,9	113,3
Ishtixon	9,8	114,2
Kattaqoʻrgʻon	18,5	113,0
Qoʻshrabot	16,1	114,1
Narpay	18,5	113,2
Payariq	14,4	110,7
Pastdargʻom	102,8	109,5
Paxtachi	16,6	114,3
Samarqand	65,4	115,3
Nurobod	16,9	113,8
Urgut	32,8	113,1
Toyloq	42,5	112,9

2024-yilning yanvar-dekabr oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi **19 753,0** mlrd soʻmga yetdi. 2023-yilning mos davriga nisbatan **10,9 %** ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining **78,5 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga toʻgʻri keldi.




Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

Hududlar kesimida ma'lumot
(2024-yil yanvar-dekabr)

	Hajmi, mlrd so'm	Ulushi, foizda
Samarqand viloyati	4 600,0	100,0
Samarqand sh.	3 625,7	78,8
Kattaqo'rg'on sh.	36,5	0,8
<i>tumanlar:</i>		
Oqdaryo	39,9	0,9
Bulung'ur	11,8	0,3
Jomboy	40,5	0,9
Ishtixon	19,7	0,4
Kattaqo'rg'on	17,5	0,4
Qo'shrabot	5,0	0,1
Narpay	17,0	0,4
Payariq	26,5	0,6
Pastdarg'om	12,1	0,2
Paxtachi	11,0	0,2
Samarqand	414,5	9,0
Nurobod	2,3	0,05
Urgut	7,2	0,2
Toyloq	312,8	6,8


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirganda eng yuqori hajm Samarqand shahri (**3 625,7** mlrd so'm), Samarqand (**414,5** mlrd so'm) va Toyloq (**312,8** mlrd so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi, (mlrd so'm) (2024-yil yanvar-dekabr)




2024-yilning yanvar-dekabr oylarida avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatishdan tashqari*) **4 600,0** mlrd so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan **54,3 %** ga oshdi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi **896,1** mlrd so'm (o'sish sur'ati **199,8 %**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari savdo hajmi **3 703,9** mlrd so'mni (o'sish sur'ati **146,3 %**) tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi os'ish sur'ati, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar qiymati.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd so‘mda (2024-yil yanvar-dekabr)



Viloyat bo‘yicha 2024-yilning yanvar-dekabr oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **27 235,6** mlrd so‘mni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan **15,2** % ga o‘tdi.

Savdo aylanmasi va ulushi



Yirik korxonalar



Mikrofirma va kichik korxonalar

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda **16 742,5** mlrd so‘mni tashkil qilib, 2023-yilning mos davriga nisbatan **107,1** % ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi **61,5** % ni tashkil qildi.

ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK HAMDA KICHIK BIZNES KORXONALARINING SAVDO HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

(2024-yil yanvar-dekabr)

2025-yil 1-yanvar holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni **2 877** tani tashkil etib, shundan, yirik korxonalar soni **33** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **2 844** tani tashkil qildi. Ulgurji savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari Samarqand shahrida (**118,9 %**) va Bulung'ur (**123,0 %**), Samarqand (**117,1 %**), Pastdarg'om (**115,6 %**), Ishtixon (**110,9 %**) hududlarida kuzatildi.

	Jami mlrd so'm	2023-yil yanvar- dekabr oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd so'm	2023-yil yanvar- dekabr oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va mikrofirma- lar, mlrd so'm	2023-yil yanvar – dekabr oylariga nisbatan, foizda
Samarqand viloyati	27 235,6	115,2	10 493,1	131,0	16 742,5	107,1
Samarqand sh.	16 462,9	118,9	7 768,1	135,0	8 694,9	107,5
Kattaqo'rg'on sh.	495,9	108,6	0,4	109,5	495,5	108,6
<i>tumanlar:</i>						
Oqdaryo	684,6	109,3	0,0	-	684,6	109,3
Bulung'ur	725,5	123,0	621,1	127,2	104,4	103,2
Jomboy	438,2	100,4	28,6	23,9	409,6	129,4
Ishtixon	193,1	110,9	0,0	-	193,1	110,9
Kattaqo'rg'on	541,4	108,1	0,0	-	541,4	108,1
Qo'shrabot	57,6	110,0	0,06	30,5	57,5	110,3
Narpay	250,0	109,5	0,3	63,8	249,6	109,6
Payariq	161,4	110,1	0,0	-	161,4	110,1
Pastdarg'om	994,2	115,6	274,2	158,0	720,0	104,9
Paxtachi	26,1	104,1	0,06	22,2	26,0	105,0
Samarqand	2 243,2	117,1	641,8	146,2	1 601,4	108,4
Nurobod	121,2	105,2	24,5	116,4 m.	96,8	84,1
Urgut	829,2	110,2	0,0	-	829,2	110,2
Toyloq	1 148,5	95,2	416,4	91,3	732,1	97,6